

**TARJMADAGI GRAMMATIK O'ZGARISHLAR JONATHAN
SVIFTNING GULIVERNING SAYOHATLARI ASARI MISOLIDA**

Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

Toshkent Davlat Transport Universiteti Talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Grammatik transformatsiya xususida so'z yuritilgan. Grammatik transformatsiya qamrab oluvchi o'zgarishlar, qoidalar, qoidadan mustasno hisoblangan, istisno holatlar tshuntirilib o'tilingan. Maqola yaratilish davomida Jonathan Swiftning asarlari, ayni manashu asardagi xato va kamchiliklar, Grammatik transformatsiya turiga kiruvchi o'zgarishlar keng yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR : tarjimon, asar, grammatika, grammatick o'zgarish , so'z o'yini, struktura, ma'no, lug'at, tahlil, izoh, muallif, tushuncha.

KIRISH : Jonatan Swift 1667 yil 30 noyabrda Dublinda tug'ilgan. Ingliz yozuvchisi, jamoat arbobi. 1682-88 yillarda Dublin universitetining Triniti-kollejida tahsil ko'rgan. Ilk asarlari - "Vilyam Senkroftga qasida" (1690) va "Kongrivaqasida" (1693). "Kitoblar jangi" (1697) pamphletining davomi "Bochka haqida ertak" hajviyasi (1704)da katolik, anglikan va puritan cherkovlari orasidagi kurash parodiya ruhida tasvirlangan. "Movutchining xatlari" (1723-24) va "Kamtarin taklif" (1729) pamphletlarida irland xalqi boshidan kechirayotgan zulm qoralangan. "Dunyoviy suhbatchilar" (1738), "Malaylarga o'gitlar" (1745) kabi hajviyalari ham bor. Swift ijodidagi eng muhim va yagona roman - "Gulliverning sayohatlari" (1-2-jiddlar, 1726) ingliz jamiyatidagi illatlarni fosh etuvchi achchiq satira, o'tkir aybnomadan iborat. Gulliverning xayoliy o'lkkalar-liliputlar mamlakatlariga qilgan sayohatlari bilan bog'liq holda adib real voqelikdagi yangicha munosabatlar, bosqinchilik urushlari, davlat idoralaidagi soqinlik, sudiyalarningadolatsizligi va boshqa qaboxatlarni hajviy-majoziy obrazlarda aks ettirgan. Swift satirasi uning ijodiga xos bo'lgan ma'rifatparvarlik asosida

rivojlanib, xususiy va ijtimoiy illatlarni tugatish zarurligini ta'kidlagan gumanistik pafos bilan chambarchas bog'liq. Swift 1745 yil 19 oktyabrda vafot etgan. [1]

ADABIYOTLAR TARIXI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolaning tahlilida grammatic o'zgarishga batafsil to'xtalib o'tiladi. Grammatic o'zgarish to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, avvalo ushbu o'zgarish turiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu o'zgarish davomida abzatsdagi zamonlarning o'zgarishi, fe'llarning to'liq shakldan qisqa shaklga yoki aksincha, qisqa shakldagi fe'llarning to'liq shaklda tarjima qilinishi, sodda gaplarni yaxlit gap shaklida va yoki qo'shma gapni sodda gap shaklga o'tkazilishi passive voice shakldan active tarzda, active ko'rinishdan passive shakllar grammatic o'zgarishning asosini tashkil etadi. 2,3,4]. Endi Guliverning Sayohatlari asaridaki bir qancha o'zgarishga uchragan misralarga e'tiborimizni qaratsak. Birinchi parcha : But the charge of maintaining me, although I had a very scanty allowance, being too great for a narrow fortune, I was bound apprentice to Mr. James Bates, an eminent surgeon in London, with whom I continued four years; Tarjimasi : Biroq, kollejda o'qishim uchun mablag' yetkazib berishga otamning qudrati yetmay qoldi, shuning uchun meni u yerdan olib, Londondagi mashhur vrach Jems Betsga shogirdlikka berdi, undan to'rt yil ta'lim oldim. Tahlil : Whom obyekt olmoshi tarjima jarayonida tushib qolib, uning vazifasini kishilik olmoshi öziga kelishikni orttirib bajaryapti.

My father now and then sending me small sums of money, I laid them out in learning navigation, and other parts of the mathematics, useful to those who intend to travel, as I always believed it would be, some time or other, my fortune to do. Tarjima: Otam har zamonda yuborgan pullarning hammasini navigatsiya hamda matematikaning boshqa sohalarini o'rganishga sarfladim. Bu fanlar hamma sayohatda qo'l kelishi mumkin, men esa, taqdir meni sayohatchi qiladi, degan fikrga qattiq ishongandim. Tahlili : O'zbek tilida predlog bo'limganligi uchun uning vazifasini kelishiklar yoki yordamchi so'zlar bajaradi . Bu gapda kelishik qo'llangan , harakat nomiga qo'shilgan holda. Ingliz tilidagi who olmoshi tarjima jarayonida rushib qolgan . Gapda modalning ikkinchi strukturasi ishlatilgan ya'ni

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tahmin ehtimol. Keyingi parcha : Soon after my return from Leyden, I was recommended by my good master, Mr. Bates, to be surgeon to the Swallow, Captain Abraham Pannell, commander; with whom I continued three years and a half, making a voyage or two into the Levant, and some other parts. Tarjimasi : Leydenden qaytgach, saxovatli ustozim mister Betsning yordamida kapitan Eybregem Pennell qo'mondonlik qilayotgan "Qaldirg'och" kemasiga xirurg bo'lib ishga kirdim. Ana shu kemada uch yarim yil xizmat qildim. Levant va boshqa mamlakatlarga sayohat qildim. Tahlili : Tarjima jarayonida egalik olmoshi hamda qo'shimchasi tushib qolyapti nafaqat bu balki, payt ravishi ham tarjima qilinmayapti. Masalan :Leydenden qaytganimdan so'ng bo'lmay, umumiy fe'lga ravishdosh qo'shilishi bilan Leydenden qaytgach bo'lib ifodalanilyapti. Keyingi parcha esa quyidagicha : The horses of the army, and those of the royal stables, having been daily led before me, were no longer shy, but would come up to my very feet without starting. The riders would leap them over my hand, as I held it on the ground; and one of the emperor's huntsmen, upon a large courser, took my foot, shoe and all, which was indeed a prodigious leap. Tarjimasi :

Otboqarlar har kuni telegramdan polk hamda qirol otxonalaridagi otlarni aylantira boshlashdi. Shuning uchun ham otlar mendan hurkimaydigan, hatto oyog'imning tagigacha keladigan bo'lib qolishdi. Ko'pincha qo'limni yerga qo'yardim, chavandozlar esa otlarini qo'lim ustidan sakrab o'tishga majbur qilishadi, bir safar imperatorning shikorbegi savlatlikkina otda kovushli oyog'im ustidan sakr ab o'tdi. Tahlili : The artiklning ikkinchi strukturasi ishtirok etgan . Ya'ni undan umumiylashtirishda foydalangan .

Three days after my arrival, walking out of curiosity to the northeast coast of the island, I observed, about half a league off in the sea, somewhat that looked like a boat overturned. I pulled off my shoes and stockings, and wading two or three hundred yards, I found the object to approach nearer by force of the tide; and then plainly saw it to be a real boat, which I supposed might by some tempest have been driven from a ship; whereupon I returned immediately towards the city, and desired his imperial majesty to lend me twenty of the tallest vessels he had left

after the loss of his fleet, and three thousand seamen, under the command of his vice-admiral. Tarjimasi : Endi bu mamlakatni qanday tark etganimni hikoya qilaman. Lekin men, awalo, ikki oy mobaynida menga qarshi olib borilgan maxfiy fitnalarni o‘quvchiga ma’lum qilishni o‘rinli deb hisoblayman. Tahlili : Tarjima jarayonida murakkab gap ikkita sodda gap tarzida tarjima qilingan . Tarjimada ma'no umumlashtirilgan va ba'zi gap va so'zlar tushib qolgan.

XULOSA : Tahlildan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish davomida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ya'ni bular : So'z tushishi , o'rin almashishi , istisno holatlar ... va hokazo. Biz esa ushbu o'zgarish turlarining keng tarqalgan turlaridan biri bo'lmish grammatic transformatsiya haqida so'z yuritdik. O'ylaymanki yuqoridagi keltirilgan misollar orqali siz bu transformatsiya turini yanada yaxshiroq tshunasiz.

REFERENCES:

1. Jonathan Swift Gulivering sayohatlari asari
2. Achilov, O. R. (2018). COMPARATIVE ANALYSIS OF FOREGROUNDING IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Web of Scholar, 5(4), 23-27.
3. Achilov, Oybek Rustamovich, & Inog'Omjonova, Robiya Rustamjon Qizi (2023). THE ROLE OF LEXICAL TRANSFORMATION IN THE TRANSLATION PROCESS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (4), 288-294.
4. Oybek Rustamovich Achilov (2022). COMPARATIVE STUDYING MODEL OF FOREGROUNDING IN UZBEK AND ENGLISH LITERARY TEXT. Academic research in educational sciences, 3 (10), 714-718.